ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 10

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
# TIL
# ADABIYOT
# TA'LIM



## Philological research:
## LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

## Филологические исследования:
## ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TerDU

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

# PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

**2024/ № 10**

Termiz – 2024

**Muassis:**
**Termiz davlat universiteti**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

**Tahririyat manzili:**
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

**BOSH MUHARRIR:**
Abduqodir TOSHQULOV,
*iqtisod fanlari doktori, professor*

**TAHRIR HAY’ATI:**

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

**Учредитель:**
**Термезский государственный университет**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

**Адрес редакции:**
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

**Institutor:**
**Termez State University**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

**EDITOR IN-CHIEF**:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

**EDITORIAL BOARD:**

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

# МУНДАРИЖА

## TILSHUNOSLIK

**JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,**
**TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA**
Intensivlik va darajalanish munosabati .....7

**ТОЖИЕВ ОЛИМЖОН МУЙДИНОВИЧ**
Ўзбек тилида равиш/сифат типидаги лексемаларда мазмуний синкретизм .....12

**UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH**
Til – hissiyotlar ifodalash vositasi .....16

**MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O‘G‘LI**
Shaxs nomlarining lug‘aviy qatlamdagi o‘rni va tavsifiy belgilari .....21

**QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA**
Ingliz tili biznes diskursida dunyoning paremiologik manzarasi.....24

**JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA**
Tarixiy romanlar diskursida so‘zlarning
o‘zaro ma’no munosabatlari .....29

**RO‘ZIMATOVA DILNOZA MURODOVNA**
Ijtimoiy maqomning sotsiolingvistik talqini .....32

**ZAYNUTDINOVA GULNOZA ANVARJON QIZI**
Presedent birliklar va turg‘un birikmalarning
badiiy matndagi poetik ahamiyati (Shuhrat Orif ijodi misolida).....37

**VASLIDDINOVA KAMOLA QODIRJON QIZI**
Korpus platformalarining til tadqiqotidagi amaliy ahamiyati.....42

**НАРМУРОДОВА ДИЛФУЗА АБДУХОЛИК КИЗИ**
Типологические и генетические характеристики
терминосистемы civil engineering/строительство .....46

**YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA**
Phraseological units with clothing components in english language.....49

# МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

**BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA**
Muxammaslarda ijtimoiy muammolar tasviri.....51

**СМАМУТОВА ШИРИН АЗАТБАЕВНА**
Қазіргі қазақ-қарақалпақ прозасындағы әдеби байланыстар.....54

**АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ**
Убайдий рубоийнавис шоир.....57

**ГАСЫМОВА СЕВИНДЖ АШУР КЫЗЫ**
Традиции праздника новруз в Азербайджане.....60

**NADIM MUHAMMAD HUMAYUN**
Alisher Navoiying «Hayratul-abror» dostoniga ishlangan «Hammomdagi uchrashuv» miniatyurasiga sharh va Navoiy qurdirgan ba'zi inshootlar.....66

**JUMAYEV ILHOM HAMROYEVICH**
O'zg'urmish – komil zohid timsoli.....71

**КЕНЖЕБАЕВА РОЗА САЙЛАУОВНА**
Фариза оңғарсынова және қарақалпақ Ақын-жазушылары арасындағы достық әдеби байланыс.....78

**ALIYEVA ORZIGUL**
Abdulla Oripov va Shavkat Rahmonning olam hamda insonga munosabatidagi o'ziga xoslik.....81

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# ABDULLA ORIPOV VA SHAVKAT RAHMONNING OLAM HAMDA INSONGA MUNOSABATIDAGI O'ZIGA XOSLIK

**Aliyeva Orzigul,**
*Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi*

Inson jamiyatda yashar ekan, o'sha jamiyatning muammolaridan chetda tura olmaydi. Qachonki, o'zgalarning g'amini, quvonchini o'ziniki deb his qila olsagina u jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanadi. Yashash mobaynida inson juda ko'p narsalarga duch keladi. Boshidan ancha-muncha og'ir-yengil kunlar o'tadi. Suv yuvgan sayin daryoning toshi qanchalik yarqiragani sari, odamning ham boshidan qanchalik ko'p siru-sinoatlar o'tsa, tosh yanlig' bardoshini ko'rsatib, tafakkuri teranlashib, shuuri tiniqlasha boradi. Buyuk Alisher Navoiy yilning to'rt fasliga qiyos qilib umrini to'rt bosqichga: yoshlik, yigitlik, o'rta yoshlik va keksalikka bo'lgan edi. Hamda bu bosqichlarning chegarasini belgilagan: tufuliyat (yoshlik) 7-8 yoshdan 20 yoshgacha, shabob (yigitlik) - 20 yoshdan 35 yoshgacha, kuhuliyat (o'rta yoshlik) - 35 yoshdan 45 yoshgacha va keksalik 45 yoshdan 60 yoshgacha.

Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" tarkibiga kiruvchi "Favoyid ul-kibar" to'rtinchi devon bo'lib, u inson umrining qarilik bosqichida va uning qish fasliga qiyosan atalgandir. Qarilik yillari davri tushunchasini shoir maxsus izohlab shunday deydi: "...Va qirq beshdin oltmish yaqingachakim, ta'yin qilsa bo'lg'aykim-bu fusul (fasl) ning qishidurkim, kishining xam (egik) qad bilan adam (yo'qlik) yo'liga kirib, zamon ahli bila xayrbod qilishidir. Aning duosida "Favoyid ul-kibar" bila nihoyatga yetkurdim"[1].

Ulug' Navoiy belgilagan umr fasllarining barcha bosqichlarida inson ma'naviy-ruhiy jihatdan turli darajada bo'ladi. Abdulla Oripovning ilk ijodidan tortib, to umrining oxirigacha yaratgan she'rlarini kuzatsak, ularda shoir shaxsi, ma'naviy-ma'rifiy takomili yilma yil mukammallik kasb etib borganligini ko'ramiz. Shoirning butun ijodi doimo adabiyotshunoslar, she'rxonlar nigohida bo'lib keldi. Hali yigitlik yoshidanoq o'zining shoh asarlarini bitgan Abdulla Oripovning ijodiy shiddati zarracha bo'lsa ham pasaymadi.

Abdulla Oripovning butun ijodi inson zakosi, uning mo'jizalarga to'la iqlimi, ruhiyati, qalbi, yuksakligi va tubanligi qarshisida lol qotgan hayrat talqinlaridir. Agar shoirning ilk lirikasi namunalarida sevgi, vatan, ona, tabiat, insoniy fazilatlar va qusurlar yonib, jo'shqin ifodalangan bo'lsa, she'rdan she'rga, yildan yilga uning donishmandlik sari yuz tutganligini, tafakkuri yanada teranlashganligi ko'rish mumkin. Bu davrda qator turkum she'rlari yaratildi. Bular: "Uyg'onish fasli", "Haj daftari", "Hikmat sadolari", "Aylayin qalbimni tortiq, O'zbekistonim, senga", "Jeneva daftari", "Istqiqlol, ketma yurt peshonasidan", "Yapon ohanglari", "Jeneva daftari"dan, "Shoirlar va yulduzlar", "Italiya daftari"dan, "Umr zinalari", "Turkiya daftari"dan, "G'azallar", "Istiqlol manzaralari" (doston), "Ummon orti ilhomlari" kabi turkumlardir.

Shavkat Rahmonning butun ijodini kuzatsak, ortiqcha jimjimadorlik, qarsakbozlik, xushomadgo'ylik, shaklbozlik, so'zbozlikni uchratmaymiz. Uning ijodida ona tabiatning sehrli tasviri, tabiat hodisalaridan inson kayfiyatiga monandlik sifatlarini topishga intilish, inson va tabiat uyg'unligini tasvirlash ustunlik qilganligini anglaymiz. Har bir she'rida insoniy qalb tebranishlari, millatini jondan ortiq ko'rish, sevish tuyg'usining ustuvorligi, shaxs va jamiyat fojialarining sabab va oqibatlarini anglashga intilishni his qilamiz. Uning ijodining o'q tomiri shaxs erki va vatan ozodligi masalasidir. Shoirning xoh tabiat manzarasi haqidagi, xoh shaxs erki, qismati haqidagi, xoh millat tarixi haqidagi she'ri bo'lsin, har biri o'ziga xos qiymatga ega.

*Chaqin bo'lma,*
*Bo'lma guldirak,*
*Yerdan ko'pam uzoqlab ketma.*
*Ovozingni yirtmagin bekor,*
*Yerni quchma-quloching yetmas*.[2]

Agar Abdulla Oripov "Quvaning anoricha" deya ta'riflagan yerdan uzoqlashgan odam maqsadiga yetolmaydi, degan bo'lsa, Shavkat Rahmon odamga qarata: shoshma, o'tib ketadigan narsalar uchun osmon qadar kekkaymagin, ovozingni baland qo'yma,

[1] https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-adabiyoti-tarixi

[2] Шавкат Раҳмон. Абадият оралаб. Шеърлар. – Тошкент, 2012. – Б. 119.

shamolga qarab qichqirma demoqchi. Mansab, boylik, shon-shuhrat izidan quvmaslik kerakligini uqtirmoqchi. Tabiat hodisalari insonni ogohlikka chorlaydi, xulosa chiqarishga undaydi. Momaqaldiroq, chaqmoq shovqin solib olamga vahima solsa ham olamga biron bir naf keltira olmaydi, quruqdan quruq yo‘qlikka yuz tutadi. Tabiat hodisalari insonlarda fikr qo‘zg‘atadi. Chunki inson tabiatning bir bo‘lagi. Shu paytgacha, inson tabiatning ustidan hukmronlik qiladigan zot deb qarab kelingan bo‘lsa, ushbu fikr haqiqat emasligi ayon bo‘lib qoldi. Tabiat kuchlari oldida odamzod ojizligini anglab qoldi. Yaralish bor, tugash bor. Boshlanish bor, oxir bor. Hech narsa abadiy emas. Vaqt – oliy hakam. Agar insonning faoliyati birovga foydasi tegmasa, u ham xuddi chaqmoq kabi yarq etadi-yu, o‘sha lahzadayoq o‘chadi. Shuning uchun, inson zoti zaminga oyog‘ini mahkam qo‘yishi, o‘tmishidan, ona tarixidan, ajdodlari xotirasidan, urf-odatlaridan, suv ichgan daryolaridan, momolarining qadim qo‘shiqlari ohanglaridan, onasining jonday allalaridan, ildizlaridan sira uzoqlashmasligi kerak, degan fikrlarni uqamiz she’r misralaridan.

Abdulla Oripov inson umrining qisqaligi, o‘rkinchiligi, hayot va o‘lim yonma-yon yurishi, qo‘yayotgan har bir qadam o‘lim sari boriladigan yo‘lni qisqartira borishi haqida shunday yozadi:

*Jajji go‘dak, sen tug‘ilding, sen uchun*
*Kim belanchak yasab turar shu damda.*
*Kimdir senga uchqur tulpor egarlar,*
*Kimdir senga hassa yo‘nar shu damda*.[1]

Shavkat Rahmon hali yigit yoshida bu dunyoni tark etib ketgan bo‘lsa-da, o‘lim haqida o‘ylagan, umr yakunida “lahza’ borligi haqida chuqur o‘yga toladi va bir kuni tugash, yakun borligini, butun umr ana shu yakunga tayyorgarlik ekanligini anglaydi:

*Butun umrim tayyorgarlikdir,*
*Hali ko‘pdir bitmagan ishim,*
*Anglanmadi hozircha ko‘p sir,*
*Hali vujud ichida ishqim.*
*Yildirimday lahza suvratin*
*Yashirincha asrar xotira.*
*Meni bor ham yo‘q qiladigan*
*Lahza porlab turar oldinda*.[2]

Shavkat Rahmon she’rlarida inson va tabiat uyg‘unligi teran anglanadi. Inson hayoti bilan uyg‘un holatlar tabiat obrazlari vositasida aks ettiriladi. Quyidagi she’rini kuzataylik:

*Tog‘ xo‘rsinib yubordi og‘ir*
*Vodiylarga yugurdi shamol.*
*Yuzlarini yashirdi hilol.*
*Tog‘ xo‘rsinib yubordi og‘ir*
*Teran xobdan uyg‘ondi yurak,*
*Tog‘lar kabi xo‘rsinmoq kerak*.[3]

Tog‘ – tabiatning ulug‘vor, salobatli yaratig‘i. U metindek bardoshning ramzi. Tog‘ni uncha-muncha narsa bezovta qilolmaydi. U ulug‘vorligi, serviqorligi, bardoshliligi bilan hayratomuzdir. Xo‘rsinish insonga xos harakat. Ammo ana shu xo‘rsinish tog‘ga nisbatan qo‘llanilishi nimadan dalolat beradi? Shoirning maqsadi nima? Ma’lumki, muazzam tabiatning sirli hodisalari, o‘ziga xos xislatlari mavjud. Masalan, har bahor kelishidan avval, uning darakchilari keladi. Ana shu darakchilardan biri mayin shamollar esishidir. Odamlar mayin shamollar esa boshlasa “Ana, bahor ham kelyapti’ deydilar. Ushbu bahor haqidagi she’rda tog‘ning xo‘rsinishi bahorning kelishidan oldingi shamol hodisasiga nisbatan qo‘llanyapti. Shoir dala-dashtlarni, bog-rog‘larni uyg‘otuvchi shamolning **uyg‘otuvchi** kuchiga urg‘u bermoqda. Hilol deb yangi chiqqan oyga nisbatan qo‘llaniladi. She’r misralaridan bahor fasli tarovati sezilib turibdi. Musaffo havo, ko‘kdagi go‘zal hilol, mayin shamol bularning barchasi kishi ruhiyatini toza hislarga oshno qiladi. She’rdan chiqadigan ma’no: xo‘rsinsang, xuddi tog‘lardek xo‘rsinsang, sening xo‘rsinig‘ingdan olam uyg‘onsa, odamlarning ruhiyatida o‘zgarish yuz bersa. Hayot va insondagi yangilanish va hissiy kechinmalar shoir qalbida sintezlashadi. Ijodkor shaxs har bir voqelik, hayot haqiqatiga o‘zining dunyoqarashi bilan yondashib, undan o‘zgacha mazmun, original obraz yaratadi. Tabiatning uyg‘onishi kabi millat ham uyg‘onsa. Shoirning orzusi, aslida, mana shu.

Millat shoirlarining asriy orzu-umidlari ushalib, millatning uyg‘onishi, xalq ongining o‘zgarishi natijasida mustaqillikka erishildi. Abdulla Oripovning “Adolat oftobi” nomli she’ri mustaqillikning dastlabki kunlarida yaratildi:

*Safga tizil, nabiram, otajonim, tur endi,*
*Mustaqillik nash’asin, haqqing bordir, sur endi.*
*Qo‘lni berib qo‘llarga bir tan bo‘lib yur endi,*
*Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo‘lsin,*
*O‘zbekning o‘z niholin ekkanligi rost bo‘lsin*.[4]

Vatan ozodligini ko‘rish, his etish, bundan faxr hissini tuyish haqiqiy insonga xosdir. Shoir bu davrda yozgan she’rlarida nima qilib bo‘lsa ham, yurt mustaqilligini asrab qolish, qadriga yetishga xalqni da’vat qildi. Uning istiqlol yillarida yaratgan she’rlarida vatan mavzusi yuqori pardalarda kuylandi, fidoyi

[1] Абдулла Орипов. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 21.
[2] Шавкат Раҳмон. Абадият оралаб. Шеърлар. – Тошкент, 2012. – Б. 144.
[3] Шавкат Раҳмон. Абадият оралаб. Шеърлар. – Тошкент, 2012. – Б. 119.
[4] Абдулла Орипов. Танланган асарлар. – Тошент: Шарқ, 2019. – Б. 317.

insonlar obrazi yaratildi. Istiqlolning qadriga yetish, Vatanni asrab-avaylash, tarix saboqlaridan to‘g‘ri xulosa olish, dunyo miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lishga intilish, O‘zbekistonning kelajagi buyuk bo‘lishiga erishish kabi his-tuyg‘ular ifodalandi.

*Sev Vatanni, sevgin borini,*
*Tog‘larining qorigacha sev.*
*Hukm deb bil ixtiyorini,*
*Cheksiz, tubsiz g‘origacha sev*.[1]

Shoir Abdulla Oripov Vatanni boricha sevishni, qabul qilishni istaydi. Vatanni umri qadar sevishini izhor qiladi.

Shavkat Rahmon ham tug‘ilgan yurtini jon qadar sevadi. U Vatanini ozod va hur ko‘rishni istaydi.

*Joylashgansan shunchalar chuqur…*
*O‘z tubiga yashirgan yurak.*
*Senga yetib bormaklik uchun*
*Uzun umrim yetmasa kerak*.[2]

Shoir o‘z vatanini qalbining tub-tubiga berkitgan. Matndagi “chuqur” so‘zida mustahkam, mahkam o‘rin egallaganligi aks etgan. Inson eng aziz, noyob narsasini dil tubiga yashiradi. Vatanning visoliga yetish, uning tabarruk bag‘rida erkalanib yashash har bir insonning istagi, orzusi. Shoir butun hayotini, ijodini ana shu vatan ozodligi, hurligi, ravnaqi, kelajagi yuksaltirishga bag‘ishladi.

Uning mashhur “Turkiylar” she’rida shoirning bezovta ruhi bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi:

*Turkda bosh qolmadi…*
*Qolmadi dovlar…*
*…Tug‘ildi,*
*Tug‘ildi*,
*Tug‘ildi qullar*.[3]

O‘zbek degan shonli millatning avlodlari shunchalik zabunlashganligini ko‘tara olmayotgan shoirning zardalari, o‘ylari asosli. Yurt mustamlakachilar zanjiri bilan bog‘langan, erki cheklangan, qadr-qimmati yerga urilayotgan zamonda shoir tinch, xotirjam yashay olmasligi aniq. Bunday holda hech bir vijdonli odam xotirjam bo‘la olmaydi. Turkiylarning birlasha olmaganligi, “bir yaqo, bir yeng” (Turdi Farog‘iy) bo‘la olmayotganliklari, bo‘laklarga bo‘linganligi, zaiflashganligi shoirni qiynaydi. Istiqlol orzusi, yurtni mustaqil ko‘rish istagi ustunlik qiladi.

Millat fidoyilari kutgan istiqlolga erishilgandan so‘ng ulkan yangiliklar ro‘y berdi. Istiqlol tufayli diniy bilimlarni o‘rganishga keng yo‘l ochildi. “Makonda lomakonsan, endi qaydan izlagaydurman” degan misradayoq yosh shoirning o‘zga o‘lchamli olam borligini e’tirof etganini, uning uchun borliq, avvalo, makon va lomakondan iborat bo‘lganini ko‘ramiz”[4]. Diniy bilimlarni ham mukammal darajada bilgan shoir mustaqillikdan so‘ng “Hikmat sadolari” turkum she’rlarini e’lon qildi. Hadislarni targ‘ib qilishning bir usuli ularni she’riy yoki nasriy yo‘lda sharhlashdir. Shoirlar ijodida payg‘ambarimiz hadislariga murojaat qilish, ulardan foydalanish an’anaga aylandi. Xususan, shoirning ”Hikmat sadolari” turkumi ham payg‘ambar hadislari sharhlariga bag‘ishlangan bo‘lib, uzoq tarixga ega mumtoz an’ana va XX asr o‘zbek she’riyatidagi izlanishlarning sintezi sifatida yaratildi.

Ma’lumki, Sharq she’riyatida yaratilgan “Arbain”larda hadislarning arabcha, keyin forscha yoki turkcha tarjimasi keltirilib, so‘ngra sharhi beriladi. Abdulla Oripovning “Hikmat sadolari” to‘plamida esa birdaniga she’rning o‘zi beriladi. “Hikmat sadolari” turkumi jami qirq to‘qqiz she’rdan iborat. Har bir she’rga alohida nom berilgan. She’rlarning ba’zilari hadis mazmunini aks ettiradi, ba’zilari esa ayrim kichik voqeani aks ettiradi. Misol uchun, shoirning “Savob” nomli she’rida hadis mazmuni aks ettirilgan:

*Dasti qisqalarni kamsitma zinhor,*
*Savobning katta-yu kichigi bo‘lmas.*
*Kimning davlati behadu bisyor*
*Valekin baxildir, tolei kulmas*.[5]

Hammaning iqtisodiy ahvoli turli darajada. Kimningdir imkoniyati cheksiz, ya’ni “dasti uzun”, kimningdir esa imkoniyati cheklangan, ya’ni “dasti qisqa”. Bu misralarda kambag‘allarni kamsitmaslik lozimligi aytilgan. Kambag‘al kishi ham bir kuni boyib ketishi mumkin. Yoki aksincha, boy odam kambag‘allashib qolishi mumkin. Kimningdir mol-dunyosi cheksiz, ammo fe’li tor va u baxtsiz. Yaxshilik qilishga qodir emas. Savob degan ezgu tushunchani anglamaydi.

*Och qolgan g‘odakka saxovatli zot,*
*Yarimta xurmoni dildan ilindi.*
*Bilgilki, bu himmat shu zum, shu zahot,*
*Bus-butun savob deb qabul qilindi*.

Haqiqatdan, yaxshilikning katta-kichigi bo‘lmaydi. Savobga muhtoj dunyoda yarimta nonni och go‘dakka ilinish ham katta savob aslida. Insonga yaxshilik qilish qiyin. Yomonlik qilish esa hammaning qo‘lidan

[1] Абдулла Орипов. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 653.

[2] Шавкат Раҳмон. Абадият оралаб. Шеърлар. – Тошкент, 2012. – Б. 61.

[3] Шавкат Раҳмон. Абадият оралаб. Шеърлар. – Тошкент, 2012. – Б. 338.

[4] Райҳонова М. Абдулла Орипов шеъриятида оламни идрок этиш ва бадиий воқелантириш тадрижи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2021. – Б. 11.

[5] Абдулла Орипов. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 426.

keladigan “yumush”. Olamda birovga yaxshilik qila oladigan, ezgu qalbli insonlar ko‘paysin. Shoirning niyati ana shunday ezgu va pok.

*Demishlar, savob ish ofatni to‘sib,*
*Ezgulik yo‘liga shaylangusidir.*
*Eng kichik himmat ham toychoqdek o‘sib,*
*Tulpordek savobga aylangusidir.*[1]

Katta ishlar uchun kichik ishlar zamin bo‘ladi. Inson yoshlikdan ulg‘ayadi. Ma’naviy komolotga ham birdan erishib qolinmaydi. Odam butun umri davomida izlanadi, ezgu ishlar qilishga shaylanadi. Zero, donishmandlar aytganlaridek, bugungi go‘dak erta katta odamga aylanadi. Kichik savoblardan ulkan savoblar yaraladi. Abdulla Oripovning “Haj daftari” turkumidagi she’rlari insonlar qalbini iymon nurlari bilan yoritishga, ozgina bo‘lsa ham nur bag‘shlashga intilgani bilan ulkan ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Oripov “Ehtiyoj’ farzandi” deb nomlangan kitobida ilk ustozi quruvchi bo‘lganligini, ustozi haqiqiy shoir dunyo ko‘rishi lozimligini, ko‘rmagan narsasi haqida yozmaslik kerakligini maslahat berganligini aytgan. Xuddi shu maslahatga amal qilgan shoir dunyo kezdi, ilhomlandi. Jeneva, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Amerika kabi ulkan mamlakatlarda bo‘ldi. Qaysi joyga borsa, albatta, go‘zal va jozibali she’rlar yozdi. Jeneva turkum she’rlarida ko‘proq tabiat manzaralarini tasvirlovchi, vatan sog‘inchida yozilgan she’rlar ko‘proq uchraydi. Bu tabiiy. Vatandan olisda uning qadri yanada bilinadi. Sog‘inch–ko‘ngilning xos tuyg‘ularidan. Sog‘inch jida serqirra, tugallanmagan, oraliq kechinma. U ba’zan quvonch bo‘lib chehramizni yoritadi, goho armon bo‘lib qalbimizga sanchiladi:

*Uchqur uchoqlar ham dunyoni kezib,*
*Oxir bir manzilga borib qo‘narlar.*
*Yonilg‘isin olib, rejasin tuzib,*
*So‘ng boshqa ellarga tomon ucharlar.*

*Masofasin bilar aqcha ham, til ham,*
*O‘zgalar ularni ko‘ziga ilmas.*
*Faqatgina bir his topmas hech barham,*
*Faqatgina sog‘inch masofa bilmas*[2].

Agar shoir ilk she’rlaridanoq XX asr o‘zbek she’riyati mundarijasini tubdan o‘zgartirib yuborgan bo‘lsa, so‘nggi davrlar lirikasida ham bu shasht sira pasaymaganligi, aksincha, avj nuqtaga ko‘tarilganligini e’tirof etish mumkin. Erkin Vohidov haqli e’tirof etganidek: “Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She’riyat yurak sadosi bo‘lganidan ana shu murakkab tuyg‘ular olamini ifoda qiladi”[3]. Shoirning so‘nggi yillarda yaratgan she’rlarida falsafiy mushohadakorlik yanada kuchayganligini ko‘rish mumkin. Inson umrning o‘tkinchiligi, vatan, xalqning ulug‘ligi, mehri, qalbning pokizaligi, fasllar falsafasi, hayotga muhabbat, oila baxti, shukronalik, hayotning qadriga yetish, salomatlik, xastalik, armon hissini kuylash ustuvor. “Falsafiy she’r mundarijasini tashkil etgan fikr shoirning shaxsiy-hayotiy tajribasi va kuzatishlaridan, hayot, umr, tiriklik, erk, zulm, adolat haqidagi tasavvur va tushunchalaridan, kechinmalaridan sizib chiqadi. Bu o‘rinda shaxsiy hayotiy tajriba avlodlar tajribasining, fikrlari, kechinmalari, qiziqish va idealining in’ikosiga aylansagina umuminsoniy mazmunga ega bo‘ladi”[4], – deb ta’kidlaydi professor N.Rahimjonov.

**Rezyume**: Ushbu maqolada Abdulla Oripov va Shavkat Rahmonning borliq va insonga munosabati o‘ziga xosligi badiiy aks ettirilgan.

**Resume**: This article artistically reflects the originality of Abdulla Oripov and Shavkat Rahman’s attitude towards existence and man.

**Резюме**: В данной статье художественно отражено своеобразие отношения Абдуллы Орипова и Шавката Рахмана к существованию и людям.

[1] Абдулла Орипов. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 426.
[2] Абдулла Орипов. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 442.
[3] Абдулла Орипов. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 442.
[4] Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 32.